



UDK: 321.01(5):1(091)

*Mirfayz IBRAGIMOV,*  
*Buxoro davlat universiteti tayanch doktoranti*  
*E-mail: mirfayzibragimov1126@gmail.com*

*F.f.d., prof. B.Turdiyev taqrizi asosida*

### SHARQ MUTAFAKKIRLARI QARASHLARIDA JAMIYAT VA DAVLAT BILAN MULOQOT KONSEPSIYASI

Аннотация

Mazkur maqolada Sharq mutafakkirlari va arboblari qarashlarida davlat va jamiyat o'rtasidagi munosabatlar masalasi tadqiq etilib, unda hukmdor va xalq o'rtasidagi muloqot, adolat, axloqiylik va jamiyat manfaatlarini muhim tamoyil ekanligi tadqiq etilgan. Ushbu falsafiy qarashlarning zamonaviy davlat va jamiyat o'rtasidagi uyg'unlikni ta'minlash, yosh avlodni ijtimoiy-falsafiy dunyoqarashini yuksaltirishga xizmat qilishi tahlil etilgan.

**Kalit so'zlar:** jamiyat, adolat, axloq, qadriyat, madaniyat, tafakkur, farovonlik, barqarorlik, ta'limot.

### КОНЦЕПЦИЯ ВЗАИМОДЕЙСТВИЯ ОБЩЕСТВА И ГОСУДАРСТВА ВО ВЗГЛЯДАХ ВОСТОЧНЫХ МЫСЛИТЕЛЕЙ

Аннотация

В данной статье исследуется проблема взаимоотношений между государством и обществом во взглядах восточных мыслителей и общественных деятелей. В ней анализируется, что важными принципами являются диалог между правителем и народом, справедливость, нравственность и приоритет интересов общества. Также рассматривается, каким образом данные философские взгляды могут способствовать обеспечению гармонии между современным государством и обществом, а также повышению социально-философского мировоззрения молодого поколения.

**Ключевые слова:** общество, справедливость, нравственность, ценности, культура, мышление, благосостояние, стабильность, учение.

### THE CONCEPT OF DIALOGUE BETWEEN SOCIETY AND THE STATE IN THE VIEWS OF EASTERN THINKERS

Annotation

This article examines the issue of relations between the state and society in the views of Eastern thinkers and scholars. It analyzes the importance of dialogue between the ruler and the people, justice, morality, and the interests of society as fundamental principles. The study also explores how these philosophical views contribute to ensuring harmony between the modern state and society and to enhancing the socio-philosophical worldview of the younger generation.

**Keywords:** society, justice, morality, values, culture, thinking, prosperity, stability, doctrine.

**Kirish.** Bugungi kunga qadar jamiyat va davlat o'rtasidagi uyg'unlik masalasi ming yillar davomida shakllanib brogan. Tarixning turli davrlarida hukm surgan sivilizatsiyalarda ijod etgan mutafakkirlar qarashlarida davlat va jamiyat o'rtasidagi muloqot masalalari inson tafakkurini boyitishda beqiyos hissa qo'shgan. Mazkur qarashlarning mazmun-mohiyatidan yurtimizdagi har bir inson, ayniqsa, yoshlar xabardor bo'lishi va chuqur o'rganishi ularning har tomonlama kamol topishida muhim rol o'ynaydi. Shu o'rinda, davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyevning quyidagi fikrlarini keltirib o'tishimiz maqsadga muvofiqdir: "Buyuk ma'rifatparvar bobolarimiz tomonidan olg'a surilgan g'oyaviy-siyosiy, ijtimoiy-ma'rifiy va huquqiy-axloqiy qarashlar, turli millat va elatlar o'rtasida bag'rikenglik va hamjihatlik tamoyillarini qaror toptirish bilan birga, milliy manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan intilishlar hozirgi murakkab va tahlikali zamonda barchamiz, avvalo, yoshlarimiz uchun chinakam ibrat namunasidir" [1].

Asrlar davomida yashab kelayotgan bunday bebaho xazinaning qadr-qimmatini bugun ham ahamiyatini yo'qotgan emas, Ularni ijtimoiy-falsafiy jihatdan o'rganish, o'qish, ma'nosini teran anglash, zamonaviy davlat va jamiyat munosabatlariga tatbiq etish xalq oldidagi mas'uliyat oshirishga xizmat qilishi, shubhasizdir. Sir emaski, bugun

jamiyatga tashabbuskor yosh avlod jadal kirib bormoqda. Ular zimmasiga davrning asosiy talablaridan biri – so'zda emas, balki amalda xalq hokimiyatini ta'minlashdek muhim vazifa turibdi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev "Xalq davlat organlariga emas, davlat organlari xalqqa xizmat qilishi kerak" [2], deya qayd etgani ham bejiz emas, albatta.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Sharq mutafakkirlari Avesto, Konfutsiy, Farobiy, Nizomulmulk, Kaykovus, Amir Timur va Alisher Navoiy asarlarida davlat va jamiyat uyg'unligi, adolat, axloqiylik va xalq manfaatlarini himoya qilish tamoyillarini ilgari surgan. Ularning qarashlari zamonaviy boshqaruv va ijtimoiy barqarorlikni tadqiq qilishda muhim manba hisoblanadi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Mazkur tadqiqotda tarixiy-falsafiy va komparativ tahlil usullari qo'llanilib, Sharq mutafakkirlari va zamonaviy qarashlar asosida davlat va jamiyat munosabatlari o'rganildi. Adabiyotlarni sistematik tahlil qilish orqali hukmdor axloqi, adolat va ijtimoiy barqarorlik tamoyillari asosiy tadqiqot obyekti sifatida belgilandi.

**Tahlil va natijalar.** Insoniyat tafakkuri durdonalari haqida gap ketganda olimlar nigohi dastlab Sharqqa qaratiladi. Sharq xalqlaridan insoniyatga meros bo'lib turli xil ijtimoiy, ma'naviy, madaniy va falsafiy innovatsiyalar qolgan va keyingi

sivilizatsiyalar tomonidan o'zlashtirilgan. Sharq tafakkuri tarixida jamiyat va davlat o'rtasidagi munosabatlar masalasi muhim ijtimoiy-falsafiy g'oyalardan biri hisoblanadi. Bu borada qadimiy manbalardan biri bo'lgan Avestada ham davlat boshqaruvi va jamiyat farovonligi bilan bog'liq muhim tamoyillar bayon etilgan. Ushbu manbada hukmdor faoliyati adolat, ezigulik va xalq manfaatlariga xizmat qilish kabi qadriyatlar bilan chambarchas bog'liq holda talqin etiladi. Avestoda keltirilgan fikrga ko'ra, yaxshi hukmdorlar davlatni yaxshilik va sadoqat tamoyillari asosida boshqarishlari hamda xalq baxt-saodatiga xizmat qiladigan adolatli qonunlarni amalga oshirishlari lozim [3]. Bu qarash davlat boshqaruvining asosiy maqsadi jamiyat farovonligini ta'minlashdan iborat ekanini ko'rsatadi. Bunday yondashuvda hukmdor nafaqat hokimiyat egasi, balki jamiyat manfaatlarini himoya qiluvchi va ijtimoiy adolatni ta'minlovchi shaxs sifatida namoyon bo'ladi.

Konfutsiy ta'limotida hukmdorning urf-odatlarini hurmat qilishi, adolatni sevishi va haqiqatga sodiq bo'lishi jamiyat hayotida muhim omil sifatida ko'rsatiladi. Agar hukmdor urf-odatlarini qadrlasa, xalq ham unga hurmat bilan qaraydi; agar u odillikni ustuvor qo'ysa, jamiyatda itoat va tartib saqlanadi; agar hukmdor haqiqatni sevsa, xalq ham nopoklik va yolg'ondan yiroq bo'ladi [4]. Demak, hukmdorning axloqiy fazilatlarini jamiyatdagi ijtimoiy muhitni belgilab beradi. Shu jihatdan Konfutsiylik ta'limotida davlat va jamiyat o'rtasidagi muloqot majburlash orqali emas, balki axloqiy namuna orqali amalga oshirilishi lozimligi ta'kidlanadi. Bunday boshqaruv sharoitida xalq hukmdorga ishonch bilan ergashadi va jamiyatda barqarorlik hamda hamjihatlik qaror topadi.

Jamiyat va davlat o'rtasidagi munosabatlar masalasi hamda jamiyatning mukammal modeli haqidagi g'oyalar buyuk mutafakkir Abu Nasr Forobiyning "Fozil odamlar shahri" asarida ilgari surilgan. Farobiy fikricha, haqiqiy baxt-saodatga erishish insonlarning o'zaro hamkorligi va ezgu amallar orqali amalga oshadi. Mutafakkir ta'kidlashicha, haqiqiy baxt-saodatga yetishuv yo'lida bir-birlariga yordam berib yaxshi, go'zal ish-amallar qiluvchi odamlar yashaydigan shahar fozila shahar, ya'ni fozil odamlar shahridir. Barcha shaharlarda baxt-saodatga yetishuv yo'lida go'zal, xayrli ishlarga bir-biriga yordam beruvchi xalqlar fazila, ya'ni fazilatli xalqlardir [5]. Demak, Farobiy qarashlarida jamiyatning taraqqiyoti individual manfaatlardan ko'ra umumiy manfaatlariga xizmat qiladigan hamjihatlik va hamkorlikka asoslanadi. Shuningdek, Farobiy fikricha, davlatning vazifasi ham aynan shunday fazilatli jamiyatni shakllantirishga xizmat qilishdir.

Beruniy jamiyat haqidagi qarashlarida o'sha davrning ijtimoiy-siyosiy vaziyatidan kelib chiqib, davlatni boshqarishda vorisiylik masalasini oldingi o'ringa qo'yganini quyidagi fikrlaridan bilib olish mumkin. "Tabiat jihatidan boshqarish va siyosat ishiga qiziquvchi, boshliq bo'lishga fazilati va kuchi bilan haqli, fikrda sabotli, davlatni o'zidan keyingilarga qoldirib, ularning o'z ota-bobolariga qarshi bo'lmasligini maqsad qilib olgan kishi bergan har bir buyruq, buyurilgan kishi oldida, turg'un tog'lar singari mahkam bo'lib, bu buyruq ko'p vaqtlar va uzun zamonlar o'tsa ham, keyingilar ham bo'ysunadi [6]. Ya'ni Beruniyning davlatni boshqarishda sobitqadamlik, adolatli bo'lish, qonun ustuvorligi haqidagi g'oyalari bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotgan emas.

Islom madaniyati oltin asrining yirik qomusiy olimi Abu Ali ibn Sino o'zining ijtimoiy-siyosiy va huquqiy qarashlarida antik va islom ilmiy tafakkuri an'analarning turli yo'nalishlarini birlashtirib, o'zining oila, jamiyat va davlat boshqaruvi masalalarining huquqiy asoslarini ishlab chiqdi. Ibn Sino davlatning jamiyat va boshqaruvdagi rolini uch jihatga bo'ladi, xususan: birinchidan, davlatda qonunning mavjudligi;

ikkinchidan, davlatda bo'sh ish o'rinlarining yaratilganligi; uchinchidan, fuqarolarning ijtimoiy muhofazaga olinishi [7].

Hukmdor va xalq o'rtasidagi munosabatlar masalasida mashhur mutafakkir Nizamulmuluk o'zining "Siyosatnoma" asarida podshohning adolatli va xalqparvar boshqaruvi tamoyillarini yoritadi. Nizamulmuluk fikricha, hukmdor nafaqat qonunlarni joriy qiluvchi, balki xalqning shikoyatlarini eshituvchi, zolimlarni jazolovchi mas'ul shaxs bo'lishi lozim. Bu haqida mutafakkir "Siyosatnoma" asarining "Podshohning mazmlarni qabul qilishi, odil va yaxshi xulqli bo'lishi haqida"gi bobida "podshoh haftada ikki kun zulm ko'rganlarni qabul qilib, zolimlarning dodini berib, jazolab va raiyat so'zlarini bevosita eshitib borishi kerak. Muhim bo'lgan arizalarni qabul qilib, har biriga javob berishi lozim. Agarda, "podshoh dodxohlarni oldiga chaqirib, haftada ikki marotaba ularning so'zlarini eshitadi va zolimlarning jazosini beradi", degan xabar mamlakatga tarqalsa, unda zolimlar qilmishlarining oqibatini o'ylab, qo'rqib bedodlik qilmaydilar" [8], – degan fikrni bildirib o'tgan.

Sharq ijtimoiy-falsafiy tafakkurida mutafakkir Kaykovus muhim o'rin egallaydi. Uning "Qobusnoma" asarida hukmdorning adolatli bo'lishi davlat barqarorligining eng muhim sharti ekanligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, podshohning adolati quyosh nuriga o'xshaydi: quyosh qanday qilib barcha yerga birdek nur sochsa, hukmdor ham jamiyatdagi barcha insonlarga teng va adolatli munosabatda bo'lishi lozim. Kaykovus hukmdorning raiyatga mehribon bo'lishi, xalq manfaatlarini himoya qilishi va zulmdan yiroq turishi zarurligini alohida qayd etadi. Chunki adolatli boshqaruv mamlakatning obodligi va barqaror rivojlanishini ta'minlaydi. Aksincha, zulm va nohaqlik davlatning inqiroziga olib keladi. Mutafakkirning ta'kidlashicha, adolat – obodonlik belgisi, zulm esa vayronalik alomatidir [9]. Demak, Kaykovus qarashlarida davlat va jamiyat o'rtasidagi munosabatlar adolat, mehr-shafqat va tenglik tamoyillari asosida qurilishi lozimligi ilgari suriladi.

Sharq tarixida davlat boshqaruvi tizimi tartib, nazorat va mas'uliyat tamoyillari asosida shakllangan. Bu borada Amir Temurning "Temur tuzuklari" asari davlat boshqaruvi organlari va ularning vazifalarini aniq belgilashga katta e'tibor qaratadi. Asarda davlat boshqaruvida to'rt nafar vazirning har kuni devonxonada faoliyat olib borishi zarurati ta'kidlanadi, bu esa tartib, nazorat va mas'uliyatning muhimligini ko'rsatadi. Ushbu vazirlar orasida birinchi o'rinda turuvchi "Mamlakat va raiyat vaziri"ning vazifasi alohida ahamiyatga ega. Vazir mamlakatning kundalik ishlarini boshqarish, xalqning ahvolidan muntazam xabardor bo'lish va bu ma'lumotlarni hukmdorga yetkazish bilan shug'ullanadi. Bu yondashuv davlat boshqaruvida xalq manfaatlarini doimo markazda ekanligini namoyon etadi. Chunki raiyatning turmush darajasi, ehtiyojlari va kayfiyati davlat barqarorligi hamda ijtimoiy tartibni saqlashda muhim omil sifatida qabul qilingan [10]. Ushbu qarashlar hukmdor va vazirlar faoliyati orqali jamiyatda barqarorlik va ishonchni ta'minlashga xizmat qilgan.

Sharq tafakkurida davlat va jamiyat o'rtasidagi munosabatlar masalasi nafaqat siyosiy, balki axloqiy nuqtayi nazaridan ham talqin etilgan. Bu borada buyuk mutafakkir Alisher Navoiy o'z asarlarida hukmdor va xalq o'rtasidagi munosabatlarni chuqur va o'ziga xos tarzda yoritadi. Navoiy fikricha, adolat g'oyasi butun jamiyat va shaxslar o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlar hamda ularning axloqiy baholarini tartibga soluvchi asosiy tamoyildir. Mutafakkirning ta'kidlashicha, axloqiylik har qanday siyosatdan ustun turadi. "Xamsa" asarida u hukmdor va xalq o'rtasidagi munosabatni shunday ifodalaydi: "Ilohim menga xalq ahvolini so'rash huquqini berdi. Ichingizda kimning menga iltimosi bo'lsa, o'z ahvolini arz qilsin. Qoshimda so'zini aytar ekan, meni bir o'ziday gumon etsin. Taxtim dahshatidan ham, tojimdandan ham

aslo qo'rqmasin. Meni shoh deb iztirob chekmasin, hamma gapini to'liq so'zlasin" [11]. Shu jihatdan, Alisher Navoiy qarashlarida hukmdor va raiyat o'rtasida ishonch, ochiqlik va hamjihatlikni mustahkamlashga xizmat qilgan.

**Xulosa.** Xulosa qilib aytganda, tarixiy manbalar va Sharq mutafakkirlarining qarashlari davlat va jamiyat o'rtasidagi uyg'unlik masalasining ahamiyatini bugungi kunda ham saqlab qolganini ko'rsatadi. Avesto, Konfutsiy ta'limoti, Farobiyning "Fozil odamlar shahri", Nizomulmulkning "Siyosatnoma", Kaykovusning "Qobusnoma", Amir

Timurning "Temur tuzuklari" va Alisher Navoiy asarlarida adolat, axloqiylik, xalq manfaatlarini himoya qilish va mas'uliyatli boshqaruv tamoyillari asosiy prinsip sifatida ilgari surilgan. Ushbu tamoyillar davlatning barqarorligi, jamiyat taraqqiyoti va yosh avlodning mas'uliyatini oshirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, zamonaviy sharoitda davlat organlarining xalq manfaatini ta'minlashi, adolat va ijtimoiy hamjihatlikni kuchaytirishi jamiyatning farovonligini kafolatlaydi va ishonchli boshqaruv tizimini yaratadi.

#### ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh.M. "Jadidlar: milliy o'zlik, istiqloq va davlatchilik g'oyalari" mavzusidagi xalqaro konferensiya ishtirokchilariga // "Xalq so'zi" gazetasi, 2023-yil 12-dekabr, №264 (8607).
2. Prezident Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 25 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasi // "Xalq so'zi" gazetasi, 2017-yil 8-dekabr, №247 (6941).
3. Avesto: Yasht kitobi. – Toshkent: "Sharq", 2001. –B.13-14.
4. Konfutsiy. Hikmatlar. – Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2010. –B.90.
5. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. -Toshkent: Yangi asr avlodi, 2018. –B.239.
6. Abu Rayhon Beruniy. Tanlangan asarlar. Tom Hindiston. Arabchadan A.Rasulov, Yu.Hakimjonov, G'.Jalolov tarjimai. So'z boshi va izohlar A.Irisov. – T.: Fan, 1965. –B.88.
7. Turdiyev B.S. Ibn Sinoning huquqiy ta'limotlar rivojida qo'shgan hissasi // Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari, № 5 (3), 2023. –B.217.
8. Nizomulmulk. Siyosatnoma (Siyar ul-muluk). -Toshkent: Yoshlar matbuoti, 2023. –B.24.
9. Kaykovus. Qobusnoma. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2016. –B.5.
10. Amir Temur Ko'ragon. Temur tuzuklari. –Toshkent: "Ijod-press" nashriyoti, 2019. –B.99.
11. Alisher Navoiy. Xamsa. -Toshkent: Yangi asr avlodi, 2015. –B.391.